



bilan olib borilgan so‘rovnomalar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar-videodarslar, animatsiyalar, 3D modellash, elektron platformalardan foydalanish-ularning fanga nisbatan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirgan. Aksincha, faqat an‘anaviy metodlar qo‘llanilgan guruhlarda bilim sifati pastroq bo‘lgan, talabalar mustaqil ishlashda qiynalgan.

Shuningdek, biokimyo fanining o‘rganilishi faqat testlar orqali baholanishi talabalar bilimini chuqurlashuviga xizmat qilmasligi mumkin. O‘quv jarayonida ochiq savollar, laborator topshiriqlar, og‘zaki javoblar va loyiha asosidagi baholash tizimi joriy qilinsa, natijalar yanada barqaror bo‘ladi. Bu esa nafaqat bilish darajasini, balki tahliliy fikrlash, ilmiy mulohaza yuritish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, tibbiy ta’limda biokimyo fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish zamon talabi bo‘lib, pedagogdan yuqori darajadagi professionallik, doimiy izlanish va moslashuvchanlikni talab etadi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tibbiy ta’limda biokimyo fanini samarali o‘qitish uchun an‘anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarur. Talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, bilimni chuqurlashtirish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda keys-stadiy, muammoli ta’lim, loyihaviy topshiriqlar, interaktiv metodlar va AKT vositalarining roli katta. Tajriba guruhlarida kuzatilgan yuqori o‘zlashtirish darajasi shuni tasdiqlaydiki, dars jarayonida o‘quvchi faoliyatini faollashtiruvchi metodlar samarali natija beradi. Ayniqsa, biokimyoviy jarayonlarni klinik misollar bilan bog‘lash, laborator tahlillar orqali amalda ko‘rsatish talabalar bilimining barqaror va chuqur bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, baholash mezonlarini takomillashtirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va o‘qituvchilarning metodik mahoratini oshirish orqali biokimyo fanining o‘zlashtirilishini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yusupova M.X., O‘rinboyev A.S. *Tibbiyotda biokimyo asoslari*, Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
2. Karimova D.S. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*, Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. UNESCO. *Innovative Teaching Strategies in Medical Education*. Paris, 2022.
4. Yusupova M.X., O‘rinboyev A.S. *Tibbiyotda biokimyo asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
5. Karimova D.S. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. UNESCO. *Innovative Teaching Strategies in Medical Education*. – Paris, 2022.
7. Karimova D.S. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR SO‘Z BOYLIGINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘QITISH ASOSLARI

Ergasheva Xilola Yunusxanovna

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dosent

ergasevahilola81@gmail.com

ORCID: 0009-0003-0957-5556

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy lingvodidaktikaning dolzarb muammolaridan biri - leksik kompetensiyani shakllantirish jarayonida innovatsion texnologiyalarning pedagogik potentsiali kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot predmeti sifatida leksik kompetensiyaning strukturaviy komponentlari va ularning innovatsion texnologiyalar muhitida shakllanish xususiyatlari belgilangan. Maqolada konstruktivistik va kommunikativ yondashuvlar sintezi asosida ishlab chiqilgan pedagogik modelning nazariy-metodologik asoslari taqdim etilgan. Empirik tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar, adaptiv ta’lim tizimlari va immersiv muhitlarning leksik kompetensiya rivojlanishidagi statistik jihatdan ahamiyatli ta’sirini tasdiqlaydi.

Kalit so‘z lar: leksik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, pedagogik model, adaptiv ta’lim, raqamli didaktika, immersiv muhit, kognitiv yuk nazariyasi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ОБОГАЩЕНИЯ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Эргашева Хилола Юнусхановна

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент



ergasevahlola81@gmail.com
ORCID: 0009-0003-0957-5556

Аннотация. В статье проведен комплексный анализ педагогического потенциала инновационных технологий в процессе формирования лексической компетенции - одной из актуальных проблем современной лингводидактики. В качестве предмета исследования определены структурные компоненты лексической компетенции и особенности их формирования в среде инновационных технологий. В статье представлены теоретико-методологические основы педагогической модели, разработанной на основе синтеза конструктивистского и коммуникативного подходов. Результаты эмпирического исследования подтверждают статистически значимое влияние цифровых технологий, адаптивных систем обучения и иммерсивных сред на развитие лексической компетенции.

Ключевые слова: лексическая компетенция, инновационные технологии, педагогическая модель, адаптивное обучение, цифровая дидактика, иммерсивная среда, теория когнитивной нагрузки.

PEDAGOGICAL BASIS OF MODERN TECHNOLOGIES FOR VOCABULARY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL CHILDREN

Ergasheva Khilola Yunuskhonovna
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Associate Professor
ergasevahlola81@gmail.com
ORCID: 0009-0003-0957-5556

Abstract. The article presents a comprehensive analysis of the pedagogical potential of innovative technologies in the process of developing lexical competence - one of the pressing issues in modern linguodidactics. The structural components of lexical competence and the peculiarities of their formation in the environment of innovative technologies are identified as the subject of research. The article presents the theoretical and methodological foundations of a pedagogical model developed on the basis of a synthesis of constructivist and communicative approaches. The results of empirical research confirm the statistically significant impact of digital technologies, adaptive learning systems, and immersive environments on the development of lexical competence.

Keywords: lexical competence, innovative technologies, pedagogical model, adaptive learning, digital didactics, immersive environment, cognitive load theory.

KIRISH. XXI asr ta’lim paradigmasining fundamental xususiyatlaridan biri uning texnologik determinantligi hisoblanadi. Zamonaviy lingvodidaktikada leksik kompetensiyani shakllantirish masalasi nafaqat til ta’limining samaradorligi, balki global kommunikativ faoliyatga tayyorgarlik nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etadi. Leksik kompetensiya - bu til tizimining semantik-strukturaviy birliklarini reseptiv va produktiv faoliyatda samarali aktuallashtirish qobiliyati bo’lib, kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponentlaridan biridir.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga yangi talablar qo’ymoqda. Xususan, til ta’limida leksik kompetensiyani shakllantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Leksik kompetensiya - bu so’z boyligini o’zlashtirish, so’zlarning ma’no munosabatlarini tushunish va ularni nutqiy faoliyatda to’g’ri qo’llash qobiliyatidir.

Hozirgi kunda an’anaviy ta’lim usullarining cheklanganligini hisobga olgan holda, innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurati tug’ilmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik kabi innovatsion vositalar leksik kompetensiyani samarali rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Muammoning dolzarbligi bir qator omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, an’anaviy pedagogik paradigmada leksik materialning mexanik yodlashga asoslangan o’zlashtirilish usullari zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga javob bermaydi. Ikkinchidan, kognitiv psixologiya va neyrolingvistika yutuqlari leksik xotirani shakllantirish jarayonining murakkab mexanizmlarini ochib berdi, bu esa yangi



pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Uchinchidan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim jarayonida individuallashtirilgan, adaptiv va interaktiv yechimlarni joriy etish imkoniyatini yaratdi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy lingvodidaktik tadqiqotlarda leksik kompetensiya ko‘p komponentli konstrukt sifatida qaraladi. Nation (2013) ning ta’kidlashicha, leksik bilim quyidagi o‘lchov bo‘yicha tabaqalashadi: forma (fonologik, orfografik va morfologik xususiyatlar), ma’no (denotativ, konnotativ va pragmatik qiymatlar) hamda qo‘llanish (sintaktik, kolligatsion va assotsiativ munosabatlar).

Bizning kontseptual modelimizda leksik kompetensiya uchta asosiy komponentning dialektik birligi sifatida tavsiflanadi:

Kognitiv-semantik komponent leksik birliklarning ma’no strukturasi, ularning paradigmatic va sintagmatik munosabatlarini anglash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu komponent Vygotskiy (1934) ning “so‘z ma’nosi rivojlanishi” konsepsiyasi asosida shakllanadi.

Pragmatik-diskursiv komponent leksik birliklarni konkret kommunikativ vaziyat va matniy muhit talablariga muvofiq tanlash hamda ishlatish malakalarini belgilaydi. Bu komponent til foydalanuvchisining sosiolingvistik kompetensiyasi bilan chambarchas bog‘liq.

Psixomotor-operatsional komponent leksik birliklarni avtomatlashtiriladigan darajada tez va aniq aktuallashtirish, shuningdek yangi leksik materiallarni mavjud kognitiv sxemalarga integratsiya qilish jarayonlarini qamrab oladi.

Innovatsion texnologiyalarning taxonomiyasi

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalarni quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

Adaptiv intellektual tizimlar (AIS) – o‘quvchining individual xususiyatlari, kognitiv uslubi va o‘rganish tezligiga mos ravishda o‘quv materialini takdim etuvchi dasturiy majmualar. Bu tizimlar mashina o‘rganish algoritmlari asosida ishlab, o‘quvchi faoliyatining real vaqt rejimidagi tahlili orqali ta’lim traektoriyasini dinamik optimallashtiradi.

Immersiv texnologiyalar (IT) - virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) va aralash reallik (MR) vositalarini o‘z ichiga oladi. Bu texnologiyalar “to‘liq immersiya” effektini yaratib, o‘quvchini sun‘iy yaratilgan til muhitiga “cho‘mdiradi”.

Gamifikatsiya tizimlari (GT) – o‘yin mexanizmlari (ochkolar, darajalar, yutiqlar, reyting) va motivatsion elementlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qiluvchi yondashuvlar. Csikszentmihalyi (1990) ning “oqim nazariyasi” ga asoslanib, bu tizimlar optimal qiyinchilik darajasini ta’minlaydi.

Konstruktivistik paradigma (Piaget, 1952; Bruner, 1966) asosida o‘quvchi bilimni faol ravishda quruvchi sub’ekt sifatida qaraladi. Leksik kompetensiya shakllanishi individual kognitiv sxemalarning doimiy rekonstruksiyasi jarayoni sifatida tushuniladi.

Sotsial-konstruktivistik yondashuv (Vygotsky, 1978) tilni ijtimoiy interaktsiya vositasi sifatida ta’kidlaydi. “Yaqin rivojlanish zonasi” kontsepsiyasi individual va hamkorlikdagi ta’lim faoliyatini optimal nisbatda uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

Kognitiv yuk nazariyasi (Sweller, 1988) inson xotirasining cheklangan sig‘imi va ma’lumotlarni qayta ishlash mexanizmlarini hisobga olgan holda o‘quv materialini tashkil etish tamoyillarini belgilaydi. Bu nazariya innovatsion texnologiyalar orqali kognitiv yukni optimal taqsimlash imkoniyatini ochadi.

METODOLOGIYA. Tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida amalga oshirildi. Tanlangan metodologik yondashuv aralash usullar (mixed methods) paradigmasiga asoslanib, miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

Innovatsion texnologiyalarning sistemli qo‘llanilishi leksik kompetensiyaning barcha strukturaviy komponentlarini statistik jihatdan ahamiyatli darajada rivojlantiradi va uzoq muddatli retensiya effektini ta’minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar spektri

Adaptiv ta’lim platformasi: Algoritm asosida individual o‘rganish yo‘lini shakllantiruvchi “LexicoAdapt” tizimi qo‘llanildi. Tizim machine learning usullari orqali o‘quvchi xatolari va muvaffaqiyatlarini tahlil qilib, keyingi darslar mazmunini dinamik ravishda sozlaydi.

Virtual reallik moduli: “VocabWorld VR” muhiti yaratildi, bu yerda talabalar turli hayotiy vaziyatlarda (aeroportda, do‘konda, restoranda) leksik birliklarni amaliy qo‘llashi mumkin. Immersiv tajriba episodik xotirani faollashtirish orqali chuqur o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Gamifikatsiya komponenti: “LexiQuest” o‘yin platformasi ishlab chiqildi. Platform o‘quvchilarni virtual dunyoda sarguzashtlarga jalb qiladi, bu yerda leksik vazifalarni bajarish orqali yangi hududlar ochiladi va achievementlar qo‘lga kiritiladi.



NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olingan natijalar bir qator nazariy konstruktarni empirik jihatdan tasdiqlaydi:

Kognitiv yuk nazariyasi kontekstida: Innovatsion texnologiyalar ma'lumotni parallel kanallar orqali takdim etish (Dual Coding Theory, Paivio, 1986) va kognitiv yukni optimal taqsimlash imkonini beradi. VR muhitida vizual va hissiy kanallarning birgalikdagi faollashuvi chuqur qayta ishlashni (deep processing) ta'minlaydi.

Konstruktivistik yondashuv prizmasida: Adaptiv tizimlar har bir o'quvchining mavjud bilim strukturasiga mos ravishda yangi ma'lumotlarni integratsiya qilish imkonini beradi. Bu Ausubel (1968) ning “meaningful learning” konsepsiyasini zamonaviy texnologik vositalar orqali amalga oshirishga imkon beradi.

Gamifikatsiya samaradorligi: Self-Determination Theory (Deci & Ryan, 1985) ga muvofiq, o'yin elementlari uchta asosiy ehtiyojni qondiradi: avtonomlik (o'quvchi o'z yo'lini tanlaydi), kompetensiya (progressiv darajalar orqali) va tegishlilik (ijtimoiy interaktsiya).

XULOSA. Amalga oshirilgan tadqiqot leksik kompetensiyani shakllantirish jarayonida innovatsion texnologiyalarning pedagogik samaradorligini ishonchli ravishda tasdiqladi.

Konstruktivistik, sotsial-konstruktivistik va kognitiv yuk nazariyalarining sintezi asosida ishlab chiqilgan texno-pedagogik model zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga javob beradi. Leksik kompetensiyaning ko'p komponentli tabiati innovatsion texnologiyalarning differentsial ta'sirini tushunish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish strategiyasiga hissa qo'shadi. Global ta'lim trendlari bilan uyg'unlik milliy ta'limning raqobatbardoshligini oshiradi.

Innovatsion texnologiyalar leksik kompetensiyani rivojlantirishda nafaqat vosita, balki ta'lim paradigmasini tubdan o'zgartiruvchi katalogik kuch ekanligini ta'kidlash zarur. Biroq, texnologiya pedagogik maqsadlarga xizmat qilishi, insoniy omilni almashtirishi emas, uni kuchaytirishi kerak.

Kelajakda bu sohadagi tadqiqotlar yanada chuqurroq, ko'p qirrali va amaliy yo'naltirilgan bo'lishi, zamonaviy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ausubel, D. P. (1968). *Educational psychology: A cognitive view*. New York: Holt, Rinehart & Winston.
2. Bruner, J. S. (1966). *Toward a theory of instruction*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Chapelle, C. A. (2003). *English language learning and technology*. Amsterdam: John Benjamins.
4. Csikszentmihalyi, M. (1990). *Flow: The psychology of optimal experience*. New York: Harper & Row.
5. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic motivation and self-determination in human behavior*. New York: Plenum Press.
6. Ellis, R. (2008). *The study of second language acquisition* (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.
7. Gardner, R. C., & Lambert, W. E. (1972). *Attitudes and motivation in second-language learning*. Rowley, MA: Newbury House.
8. Hattie, J. (2009). *Visible learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement*. London: Routledge.
9. Nation, I. S. P. (2013). *Learning vocabulary in another language* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
10. Paas, F., & Van Merriënboer, J. J. G. (1993). The efficiency of instructional conditions: An approach to combine mental effort and performance measures. *Human Factors*, 35(4), 737-743.
11. Paivio, A. (1986). *Mental representations: A dual coding approach*. Oxford: Oxford University Press.
12. Piaget, J. (1952). *The origins of intelligence in children*. New York: International Universities Press.
13. Puente, R. R. (2006). Transformation, technology, and education. Retrieved from <http://hippasus.com/resources/tte/>
14. Sweller, J. (1988). Cognitive load during problem solving: Effects on learning. *Cognitive Science*, 12(2), 257-285.
15. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
16. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. *Language Teaching*, 31(2), 57-71.
17. Жалолов, Ж. Ж. (2012). *Чет тил ўқитиш методикаси*. Тошкент: Ўқитувчи.
18. Ўлдошев, У. Ю. (2019). Замонавий таълим технологиялари. *Педагогика*, 3, 45-52.
19. Саидов, Қ. С. (2020). Рақамли таълимнинг педагогик имкониятлари. *Таълим тизимини модернизациялаш масалалари*, 2, 78-85.



20. Турдиев, М. Т. (2021). Инновацион технологиялар асосида лингводидактик компетенцияни ривожлантириш. *Тил ва адабиёт таълими*, 4, 12-19.

BADIIY ASARDA KO‘P TARZLI NUTQ ELEMENTLARINING FUNKSIYASI

Iplina Antonina Aleksandrovna

ORCID ID: 0009-0006-7606-1485

PhD, dotsent, Turan International University Namangan, Uzbekiston

[*antipmoon@mail.ru*](mailto:antipmoon@mail.ru)

Annotatsiya: Ushbu maqola G. A. Dolgayaning "O'rta dunyo xudolari" fantastik romanidagi so'zlashuv so'zlari, yoshlar jargonlari, jargonlar, arxaizmlar, istorizmlar, professionalizm va poetizmlar kabi heterojen nutq elementlarining ishlashini o'rganadi. Tadqiqotning ilmiy asosi R.I. Avanesov, E.A. Zemskaya, L.L. Kasatkin, S.I. Ozhegov, E.O. Oparina, D. Savina va F.P. Filin. Tadqiqotimiz uchun biz keng qamrovli filologik tahlildan (kontekstual, qiyosiy va funksional-stilistik usullardan) foydalandik. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, nutq elementlari butun badiiy asarning tizimli tarkibiy qismlari bo'lib, muallif uslubini ham ochib beradi.

Kalit so'zlar: *so'zlashuv so'zlari, norasmiy leksika, jargon, arxaizmlar, istorizm, professionalizm, poetikizm.*

ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ РАЗНОСТИЛЕВЫХ РЕЧЕВЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ

Иплина Антонина Александровна

ORCID ID: 0009-0006-7606-1485

PhD, доцент, Turan International University

Наманган, Узбекистан

[*antipmoon@mail.ru*](mailto:antipmoon@mail.ru)

Аннотация: В данной статье было рассмотрено функционирование разностилевых речевых элементов, таких как просторечия, молодёжный сленг, жаргонизмы, архаизмы, историзмы, профессионализмы и поэтизмы, в романе-фэнтези Г.А. Долгой «Боги срединного мира». Научной основой для исследования стали работы Р.И. Аванесова, Е.А. Земской, Л.Л. Касаткина, С.И. Ожегова, Е.О. Опариной, Д. Савиной, Ф.П. Филина. Для нашего исследования мы использовали комплексный филологический анализ (контекстуальный, сопоставительный и функционально-стилистический методы). По итогам исследования было установлено, что речевые элементы являются системообразующими компонентами художественного произведения в целом, а также выявляют стиль автора.

Ключевые слова: *просторечия, сленг, жаргонизмы, архаизмы, историзмы, профессионализмы, поэтизмы.*

FUNCTIONING OF MULTI-STYLE SPEECH ELEMENTS IN A WORK OF ART

Iplina Antonina Aleksandrovna

ORCID ID: 0009-0006-7606-1485

PhD, associate professor, Turan International University

Namangan, Uzbekistan

[*antipmoon@mail.ru*](mailto:antipmoon@mail.ru)

Abstract: The functioning of heterogeneous speech elements, such as colloquialisms, youth slang, jargon, archaisms, historicisms, professionalisms and poeticisms, in the fantasy novel “Gods of the Middle World” by G.A. Dolgaya are examined in this article. The research is based on the scientific works of R.I.